

## BOLALAR PSIXOLOGIYASI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Safarova Baxor Ravshan qizi**

Jizzax davlat pedagogika universiteti Pedagogika va  
psixologiya fakulteti talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Bolalar psixologiyasi, uning shakllanish va rivojlanish bosqichlari, undagi o'ziga xos xususiyatlar haqida so'z boradi. Bolalar psixologiyasining asosiy kategoriyalariga yosh, bolalik, taraqqiyot, o'sish, determinizm, geteroxronlik, tizimlilik kabi tushunchalar kiradi.

**Kalit so'zlar:** bolalar psixologiyasi, yetakchi faoliyat tipi, ilk bolalik, aqliy yosh, ontogenez, L.F.Obuxova, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, bolalarning psixik xususiyatlari.

Bolalar psixologiyasi –psixologiya sohasi, bolalar psixologik rivojlanishining umumiy va alohida xususiyatlarini, turli yosh bosqichlarida bu jarayon qanday kechishi, uni harakatlantiruvchi kuchlar va qonuniyatlarni tadqiq qiladi. Shu sababli bolalar psixologiyasini ko'pincha „Yosh psixologiyasi“ deb ataydilar. Bolalar psixologiyasining asosiy kategoriyalariga yosh, bolalik, taraqqiyot, o'sish, determinizm, geteroxronlik, tizimlilik kabi tushunchalar kiradi.

Albatta, fanning kategoriyalari faqat bu tushunchalar bilan cheklanmaydi. Asosiy kategoriyalar jumlasiga bulardan tashqari, taraqqiyotning ijtimoiy vaziyati, yetakchi faoliyat tipi va boshqa bir qator tushunchalari kiritish mumkin. Bu tushunchalar psixologiya sohasidagi ilg'or tadqiqotlar natijasida shakllangan va fanga olib kirilgan. Bolalar psixologiyasi fanini o'rganish ma'lum ma'noda ushbu fanning kategoriyalarini o'zlashtirishdan iborat. Quyida biz bolalar psixologiyasining ayrim asosiy kategoriyalari xususida alohida to'xtalib o'tamiz.

Bolalik– ontogeneznining dastlabki davrlarini belgilash uchun(tug'ilgandan o'smirlikkacha bo'lgan davrni belgilash uchun)qo'llanadigan tushuncha. Yosh davrlarining an'anaviy tasnifiga ko'ra bolalik – go'daklik (tug'ilgandan lyoshgacha),

ilk bolalik (1 yoshdan 3 yoshgacha), maktabgacha yosh (3 yoshdan 6-7 yoshgacha) va kichik maktab yoshi (6-7 yoshdan 10-11 yoshgacha) davrlarni o'z ichiga oladi. Bolalik jadal psixik taraqqiyot davridir[1]. Taraqqiyot – narsa yoki hodisalarning vaqt o'tishi bilan miqdor va sifat jihatdan o'zgarishi natijasida yuqoriroq darajaga ko'tarilishi mumkin.

Psixika taraqqiyoti – tug'ilgandan boshlab yosh davrlari o'tishi bilan psixika faoliyatining takomillashishidir. Psixik taraqqiyot bolaning insoniyat tarixi davomida to'plagan bilim va tajribalarni o'zlashtirishi hamda shaxs sifatida shakllanib borishi jarayonidan iborat.

Yosh – individ psixik taraqqiyotining aniq vaqt chegarasiga ega bo'lgan bosqichi. Psixik taraqqiyotning har bir bosqichida individda muayyan fiziologik va psixologik o'zgarishlar kuzatiladi. Odatda psixologiyada xronologik va psixologik yosh ajratiladi. Xronologik yosh inson tug'ilgandan boshlab necha yosh yashaganini ifodalaydi. Psixologik yosh esa inson psixik rivojlanishi darajasini aks ettirib, ko'pincha aqliy yosh deb ataladi. Aqliy yosh turli yoshdagi odamlar uchun mo'ljallangan maxsus test topshiriqlari orqali aniqlanadi. Aqliy yoshning xronologik yoshga nisbati bola psixik taraqqiyotining o'ziga xos ko'rsatkichi intellektual rivojlanish koeffitsientini hosil qiladi, bu koeffitsient ingliz tilidan olingan qisqartma IQ harflari orqali belgilanadi[3].

Bola rivojlanishining turli tomonlarini har xil fanlar – anatomiya, fiziologiya, oliy nerv faoliyati fiziologiyasi, gigiena, etnografiya va boshqalar o'rganadi. Tug'ilgandan yetuklik davrigacha bola psixik taraqqiyotini o'rganish esa psixologik bilimlarning maxsus sohasibolalar psixologiyasining zimmasidadir. Chunki bolalar psixologiyasi bola psixik taraqqiyoti qonuniyatlari, rivojlanishning turli bosqichlarida bola psixikasiga xos xususiyatlar haqidagi fandır.

Tadqiqotchi L.F.Obuxova ta'kidlaganidek, bolalar psixologiyasining predmeti tarixan o'zgarib borgan. Bugungi kunda bolalar psixologiyasining predmeti ontogenezdagi psixik taraqqiyotning umumiy qonuniyatlari, yosh davrlari, bir yosh davridan boshqasiga o'tish sabablarini aniqlashdan iborat. Agar pediatr bolalarning jismoniy salomatligi bilan shug'ullansa, bolalar psixologi bola psixikasining qanchalik

to'g'ri rivojlanayotgani va faoliyat ko'rsatayotganini, bordi-yu bu sohada kamchilik bo'lsa, uni nimaning hisobiga kompensatsiyalash mumkinligini o'rganadi[2].

Hozirgi kunda bolalar psixologiyasi predmetining kengayib borishi kuzatilmoqda. Bu hodisa bolaning homila davridagi rivojlanishini tobora chuqurroq o'rganish natijasida ro'y bermoqda. Pedagogika – ta'lim va tarbiya qonunlari, metod va usullari haqidagi fan. U ta'lim va tarbiyaning maqsad va vazifalarini, ularning shaxs taraqqiyoti va jamiyat hayotidagi o'rnini ochib beradi. Pedagogika va psixologiya fanlarining insonga ta'lim va tarbiya berishsohasidagi hamkorligi chuqur tarixga ega. Pedagogika bilan psixologiyaning o'zaro hamkorligi va aloqasi an'anaviy va azaliy bo'lib, ularning yosh avlod tarbiyasini zamon talablari ruhida amalga oshirishdagi roli va nufuzi o'ziga xosdir. Respublikamizda amalga oshirilayotgan yangi “Ta'lim to'g'risidagi” hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ning amalga oshirish ham ikki fan hamkorligi va o'zaro aloqasini har qachongidan ham dolzarb qilib qo'ydi.

Milliy dasturda e'tirof etilgan yangicha modeldagi shaxsni kamol toptirish, uning chuqur bilimlar sohibi bo'lib yetishishi, barkamolligini kafolatlovchi shart-sharoitlar orasida yangi pedagogik texnologiyalarini ta'lim va tarbiya jarayonlariga tatbiq etishda pedagogikaning o'z uslub va qoidalari yetarli bo'lmaydi. Shuning uchun ham psixologiya u bilan hamkorlikda yosh avlod ongining ta'lim olish davrlaridagi rivojlanish tendensiyalaridan tortib, toki yangicha o'qitish texnologiyalarini bola tomonidan o'zlashtirilishi va undagi aqliy hamda intellektual qobiliyatlarga nechog'lik ta'sir ko'rsatayotganligini o'rganish va shu asosda ishni tashkil etish psixologiyadagi metodlarni didaktik metodlar bilan uyg'unlashtirishni taqozo etadi.

Bolalar psixologiyasi bolalarda psixik jarayonlar (ma'rifiy, nutqiy, hissiy, irodaviy va hokazo) paydo bo'lishi va rivojlanishini, psixik xususiyatlar qaror topishini, xilma-xil faoliyatning (o'yinlar, o'qish, mehnat) rivojlanishini, bolaning shaxs sifatida shakllanishini o'rganadi. Bolalar psixologiyasi umumiy psixologiyada ishlab chiqilgan tadqiqot usullaridan foydalanadi, biroq uni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari bor. Bola shaxsi yosh xususiyatlarini o'rganishda ko'ndalang, kesma va longityud deb nomlangan tadqiqotlar o'tkaziladi[4].



Birinchi holatda birgina psixik jarayonning o'zi bir vaqtda turli yosh guruhlariga taalluqli bo'lgan bolalarda tadqiq qilinadi. Ikkinchi holatda (longityud) esa ma'lum bir (alohida tanlab olingan) bolalarning psixik xususiyatlari ko'p yillar davomida tadqiq qilinadi. Bu esa o'z navbatida ular psixikasi rivojlanishining umumiy kechishini kuzatish imkoniyatini beradi. Bolalar psixologiyasida asosan ota-onalarga bolaga unga bo'lgan ishonch, hurmat, qo'llab-quvvatlash, unga bo'lgan e'tiborlarini his qildirish. Mumkin bo'lgan va mumkin bo'lmagan holatlar o'rgatiladi. Bola dunyoni, atrofni ota-ona ko'zlari bilan anglaydi. Ota-onaga nima yomon bo'lsa, bola shuni yomon deb hisoblaydi. Ota-ona kimni xush ko'rsa, bola uchun u inson yaxshi bo'ladi. Bu holat bolani 10-12 yoshiga qadar davom etadi. Undan keyin bola o'zi xulosa qilishga o'rganishni boshlaydi. Shunday ekan, bolaning har bir harakati – bu ko'zgidagi sizning aksingiz[2].

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Bolalar psixologiyasi XIX asr o'rtalarida mustaqil fan sifatida ajralib chiqq boshladi. U pedagogika psixologiyasi, pedagogika, oliy asab faoliyati fiziologiyasi bilan chambarchas bog'langandir. Uning ma'lumot va xulosalari yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash nazariyasi va amaliyoti uchun, umumiy psixologiya uchun muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda Bolalar psixologiyasi masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ham olib borilmoqda. Bolalar psixologiyasi bolalarda psixik jarayonlar jumladan, ma'rifiy, nutqiy, hissiy, irodaviy va hokazolarni paydo bo'lishi va rivojlanishini, psixik xususiyatlar qaror topishini, xilma-xil faoliyatning rivojlanishini, bolaning shaxs sifatida shakllanishini o'rganadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Jalilova S. X. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2017. 21-b.
2. Nishanova Z., Alimova G. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2006. 4-6-b.
3. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Toshkent. 2000. 208-b.
4. [www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org). internet sayti